

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI KODEKSIGA QO'SHIMCHA VA O'ZGARTISHLAR KIRITISH HAQIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 16-avgustda qabul qilingan
Senat tomonidan 2021-yil 30-sentabrda
ma'qullangan

1-modda. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2015-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi **kodeksiga** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil, № 3, 6-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 9, 193-modda, № 12, 269-modda; 1996-yil, № 5-6, 69-modda, № 9, 144-modda; 1997-yil, № 2, 56-modda, № 4-5, 126-modda, № 9, 241-modda; 1998-yil, № 3, 38-modda, № 5-6, 102-modda, № 9, 181-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda, № 5, 124-modda, № 9, 229-modda; 2000-yil, № 5-6, 153-modda, № 7-8, 217-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda, № 9-10, 165, 182-moddalar; 2002-yil, № 1, 20-modda, № 9, 165-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda, № 5, 67-modda, № 9-10, 149-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda, № 5, 90-modda, № 9, 171-modda; 2005-yil, № 1, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 9, 312-modda, № 12, 413, 417, 418-moddalar; 2006-yil, № 6, 261-modda, № 9, 498-modda, № 10, 536-modda, № 12, 656, 659-moddalar; 2007-yil, № 4, 158, 159, 164, 165-moddalar, № 9, 416, 421-moddalar, № 12, 596, 604, 607-moddalar; 2008-yil, № 4, 181, 189, 192-moddalar, № 9, 486, 488-moddalar, № 12, 640, 641-moddalar; 2009-yil, № 1, 1-modda, № 9, 334, 335, 337-moddalar, № 10, 380-modda, № 12, 462, 468, 470, 472, 474-moddalar; 2010-yil, № 5, 175, 179-moddalar, № 6, 231-modda, № 9, 335, 339, 341-moddalar, № 10, 380-modda, № 12, 468, 473, 474-moddalar; 2011-yil, № 1, 1-modda, № 4, 104, 105-moddalar, № 9, 247, 252-moddalar, № 12/2, 365-modda; 2012-yil, № 4, 108-modda, № 9/1, 242-modda, № 12, 336-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda, № 10, 263-modda; 2014-yil, № 1, 2-modda, № 5, 130-modda, № 9, 244-modda, № 12, 341, 343-moddalar; 2015-yil, № 6, 228-modda, № 8, 310, 312-moddalar, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 1, 2-modda, № 4, 125-modda, № 9, 276-modda, № 12, 383, 385-moddalar; 2017-yil, № 4, 137-modda, № 6, 300-modda, № 9, 510-modda, № 10, 605-modda; 2018-yil, № 1, 1, 4, 5-moddalar, № 4, 224-modda, № 7, 430, 431, 432-moddalar, № 10, 671, 673, 679-moddalar; 2019-yil, № 1, 1, 3, 5-moddalar, № 2, 47-modda, № 3, 161, 165, 166-moddalar, № 5, 259, 261, 267, 268-moddalar, № 7, 386-modda, № 8, 469, 471-moddalar, № 9, 591, 592-moddalar, № 10, 674, 676-moddalar, № 11, 787, 791-moddalar, № 12, 880, 891-moddalar; 2020-yil, № 1, 4-modda, № 3, 203, 204-moddalar, № 7, 449-modda, № 9, 539, 540-moddalar, № 10, 593, 596-moddalar, № 11, 651-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 5, 7, 12, 13, 14-moddalar, № 2, 142-modda, № 3, 217-modda, № 4, 290, 293-moddalar, 4-songa ilova) quyidagi qo'shimcha va o'zgartishlar kiritilsin:

1) quyidagi mazmundagi 17²-modda bilan to'ldirilsin:

"17²-modda. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan huquqbazarliklar uchun shaxslarning ma'muriy javobgarligi

Ushbu Kodeks 227¹⁰-moddasining ikkinchi qismida va 227¹³-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar sodir etilgan taqdirda, deklarant yoxud uning ishonchli vakili ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Ushbu Kodeks 227¹⁶-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarlik sodir etilgan taqdirda, bojxona organi oldidagi majburiyatni o'z zimmasiga olgan shaxs ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Ushbu Kodeks 227²²-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarlik sodir etilgan taqdirda, deklaratsiyalovchi shaxs ma'muriy javobgarlikka tortiladi, bunda, agar mazkur huquqbazarlik bojxona rasmiylashtiruvi uchun taqdim etilgan hujjalarda noto'g'ri axborot ko'rsatilganligi oqibatida sodir etilgan bo'lsa, tegishli hujjalarni va axborotni taqdim etgan deklarant yoxud uning ishonchli vakili ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojaxona qo'mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan bojaxona to'g'risidagi qonunchilik buzilganligiga doir ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishda huquqbazarlik takroriy sodir etilganligi e'tiborga olinmaydi, bundan ushbu Kodeks 321-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan hol mustasno";

2) quyidagi mazmundagi 21²-modda bilan to'ldirilsin:

"21²-modda. Yarashilganligi munosabati bilan ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish

Ushbu Kodeksning 40-moddasida (tuhmat), 41-moddasida (haqorat qilish), 45-moddasida (fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish), 46-moddasida (fuqaroga ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lган ma'lumotlarni oshkor etish), 46¹-moddasida (shaxsiy hayot daxlsizligini buzish), 52-moddasida (yengil tan jarohati yetkazish), 61²-moddasida (mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish), 104-moddasida (ekinzorlarni payhon qilish, qishloq xo'jalik ekinlarining dalada to'plab qo'yilgan hosiliga zarar yetkazish yoki uni yo'q qilib yuborish, ko'chatlarga shikast yetkazish), 133-moddasida (transport vositalari haydovchilarining yo'l harakati qoidalarini buzishi jabrlanuvchiga yengil tan jarohati yoki ancha miqdorda moddiy zarar yetkazilishiga olib kelishi), 134-moddasida (haydovchilarning yo'l harakati qoidalarini buzishi transport vositalarining yoki boshqa mol-mulkning shikastlanishiga olib kelishi), 183-moddasida (mayda bezorilik) hamda 200-moddasida (o'zboshimchalik) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklarni sodir etgan shaxs, agar u o'z aybiga iqror bo'lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, ma'muriy javobgarlikdan ozod etilishi mumkin.

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) taraflarning yarashuvi munosabati bilan ishni sudga yuborish to'g'risida qaror chiqaradi va ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish haqidagi masalani hal etish uchun ish materiallarini ushbu Kodeksning 313¹-moddasida belgilangan tartibda sudga yuboradi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbazarlikni bir yil ichida takroran sodir etgan shaxs tomonlarning yarashuvi munosabati bilan ma'muriy javobgarlikdan ozod qilinmaydi";

3) 227¹⁰-modda ikkinchi qismining **sanksiyasi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi";

4) **227¹³-modda:**

nomining o'zbekcha matnidagi "qo'yish" degan so'z "joylashtirish" degan so'z bilan almashtirilsin;

birinchi qismining **dispozitsiyasi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Tovarlarni saqlash uchun joylashtirishning belgilangan talablari va shartlariga, ularni saqlash tartibiga, xuddi shuningdek bojaxona omborlarida hamda erkin omborlarda tovarlarga doir operatsiyalar o'tkazish tartibiga riosa etmaslik, bundan ushbu moddaning uchinchi qismida, ushbu Kodeksning 227⁴, 227⁸, 227⁹ va 227¹¹-moddalarida nazarda tutilgan hollar mustasno";

quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan to'ldirilsin:

"Tovarlarni bojaxona rejimida saqlash muddatlariga riosa etmaslik,—

bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi";

5) 227¹⁶-modda birinchi qismining **sanksiyasi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi";

6) 227²²-modda ikkinchi qismining **sanksiyasi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi";

7) 245-moddaning **birinchi qismi**:

"46¹, 46², 47, 47¹, 47², 47³" raqamlari "46¹, 46²-moddalarida, 47-moddasining ikkinchi — to'rtinchi qismlarida, 47¹, 47²" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

"148-moddasida (ajratilgan mintaqalarda va yog'och ko'priklardan 100 metrgacha bo'lган masofada olov yoqqanlik, taxta to'shamali ko'priklarda chekkanlik uchun)" degan so'zlar chiqarib tashlansin;

“188, 188¹, 188²” raqamlari “188¹” raqami bilan almashtirilsin;

“225¹, 226-moddalarida, 227⁴-moddasining birinchi — to’rtinchi qismlarida, 227⁸, 227⁹, 227¹³, 227¹⁴, 227¹⁵, 227¹⁶, 227¹⁷, 227¹⁸, 227¹⁹, 227²⁰, 227²¹, 227²², 227²³, 227²⁴, 227²⁵, 227²⁶, 227²⁷-moddalarida” degan so’zlar “225¹, 226, 227⁴, 227⁸, 227⁹-moddalarida, 227¹³-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 227¹⁴, 227¹⁵-moddalarida, 227¹⁶-moddasining ikkinchi — beshinchi qismlarida, 227¹⁷, 227¹⁸, 227¹⁹, 227²⁰, 227²¹-moddalarida, 227²²-moddasining birinchi qismida, 227²³, 227²⁴, 227²⁵, 227²⁶, 227²⁷-moddalarida” degan so’zlar bilan almashtirilsin;

8) 248-moddaning:

birinchi qismidagi:

“54, 56¹-moddalarida” degan so’zlar “47-moddasining birinchi qismida, 47³, 54, 56¹-moddalarida” degan so’zlar bilan almashtirilsin;

“147, 156, 161, 183-moddalarida, 187-moddasining birinchi qismida, 192, 204, 205-moddalarida” degan so’zlar “147-moddasida, 148-moddasida (ajratilgan mintaqalarda va yog’och ko’priklardan 100 metrgacha bo’lgan masofada olov yoqqanlik, taxta to’shamali ko’priklarda chekkanlik uchun), 156, 161, 183-moddalarida, 187-moddasining birinchi qismida, 188, 188², 192, 204, 205-moddalarida” degan so’zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi qismining 4-bandini quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“4) ushbu Kodeksning 47-moddasi birinchi qismida, 47³, 54, 56¹-moddalarida, 110-moddasining birinchi qismida (fuqarolarga nisbatan), 111-moddasining birinchi qismida, 113-moddasining birinchi, ikkinchi, to’rtinchi va beshinchi qismlarida, 114, 122, 123-moddalarida, 127-moddasida (tovush signalini sababsiz berishga doir qismida), 128⁶-moddasida, 147-moddasining birinchi qismida (avtomobil yo’llarini o’zboshimchalik bilan qazish, ularda sun’iy notekisliklar va to’siqlar yaratganlik, avtomobil yo’lida ishlarni amalga oshirish uchun berilgan ruxsatnomalarini bajarmaganlik, shuningdek yo’llarni saqlash qoidalarini buzganlik uchun), 148-moddasida (ajratilgan mintaqalarda va yog’och ko’priklardan 100 metrgacha bo’lgan masofada olov yoqqanlik, taxta to’shamali ko’priklarda chekkanlik uchun), 161-moddasida (fuqarolarga nisbatan), 187-moddasining birinchi qismida, 188, 188², 192, 221-moddalarida, 223-moddasining birinchi qismida, 223¹, 223³-moddalarida, 224-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbazarliklar uchun — ichki ishlarni organlari tayanch punktlarining profilaktika katta inspektorlari va inspektorlari”;

9) 262-modda:

birinchi qismidagi “227, 227¹, 227², 227³, 227⁵, 227⁶, 227⁷, 227¹⁰, 227¹¹, 227¹²-moddalarida” degan so’zlar “227, 227¹, 227², 227³, 227⁵, 227⁶, 227⁷, 227¹⁰, 227¹¹, 227¹²-moddalarida, 227¹³-moddasining uchinchi qismida, 227¹⁶-moddasining birinchi qismida, 227²²-moddasining ikkinchi qismida” degan so’zlar bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan to’ldirilsin:

“O’zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo’mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan ma’muriy huquqbazarliklar to’g’risidagi ishlarni ko’rishga hamda jarima tariqasidagi ma’muriy jazo choralarini qo’llashga bojxona organlarining bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshiradigan bosh inspektorlari, katta inspektorlari (inspektorlari) haqlidir”;

10) 271-modda quyidagi mazmundagi 10¹-band bilan to’ldirilsin:

“10¹) huquqbazar ushbu Kodeksning 21²-moddasida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbazarliklar to’g’risidagi ishlarni bo’yicha jabrlanuvchi bilan yarashgan bo’lsa”;

11) 283-moddaning to’rtinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Transport vositasidan foydalangan holda yo’l harakati qoidalari buzilganligi maxsus avtomatlashtirilgan foto- va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan, shuningdek bojxona to’g’risidagi qonunchilik buzilganligi O’zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo’mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan taqdirda ma’muriy huquqbazarlik to’g’risida bayon nomma tuzilmaydi”;